Annotatsiya: Mazkur maqolada LegalTech va LawTech texnologiyalarining mohiyati, ularning global rivojlanish tendensiyalari, huquq tizimiga ta'siri, mavjud muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida AQSH, Buyuk Britaniya, Estoniya, Singapur va boshqa davlatlarning tajribalari o'rganilib, huquqiy xizmatlarni raqamlashtirish jarayonlari baholandi. Shuningdek, sun'iy intellekt, blokcheyn, Big Data va onlayn platformalarning huquq sohasidagi o'rni yoritildi. Tadqiqot natijalari LegalTech va LawTech texnologiyalari yuridik xizmatlar samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda huquqiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar maxfiyligi va texnologik savodxonlik bilan bog'liq muammolar ham tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: legaltech, lawtech, sun'iy intellekt, blokcheyn, big data, raqamli huquq, elektron sud, kiberxavfsizlik, huquqiy texnologiyalar, raqamlashtirish.

Abstract: This article analyzes the essence of LegalTech and LawTech technologies, their global development trends, impact on legal systems, existing challenges, and future prospects. The study examines the experiences of the United States, the United Kingdom, Estonia, Singapore, and other countries in the digitalization of legal services. Particular attention is given to the role of artificial intelligence, blockchain, Big Data, and online platforms in the legal sector. The findings indicate that LegalTech and LawTech technologies contribute to improving the efficiency of legal services, reducing costs, and expanding access to legal assistance. At the same time, issues related to cybersecurity, data privacy, and technological literacy are also discussed.

Key words: legaltech, lawtech, artificial intelligence, blockchain, big data, digital law, e-court, cybersecurity, legal technologies, digitalization.

Аннотация: В данной статье рассматриваются сущность технологий LegalTech и LawTech, тенденции их глобального развития, влияние на правовую систему, существующие проблемы и перспективы. В ходе исследования были изучены опыт США, Великобритании, Эстонии, Сингапура и других государств в сфере цифровизации юридических услуг. Особое внимание уделено роли искусственного интеллекта, блокчейна, Big Data и онлайн-платформ в правовой сфере. Результаты исследования показали, что технологии LegalTech и LawTech способствуют повышению эффективности юридических услуг, снижению затрат и расширению доступа к правовой помощи. Вместе с тем проанализированы проблемы кибербезопасности, конфиденциальности данных и технологической грамотности.

Ключевые слова: legaltech, lawtech, искусственный интеллект, блокчейн, big data, цифровое право, электронный суд, кибербезопасность, юридические технологии, цифровизация.

KIRISH

XXI asrning eng muhim belgilaridan biri - bu insoniyat faoliyatining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning chuqur kirib borishi bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiyot, shuningdek, huquq sohasida ham zamonaviy raqamli texnologiyalar ta'siri ostida tubdan o'zgarib bormoqda. Shu jarayonda LegalTech va LawTech kabi atamalar paydo bo'lib, jahon miqyosida yuridik amaliyotning yangi bosqichini boshlab berdi.

LegalTech atamasi odatda yuridik firmalar va advokatlar faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llash orqali xizmat sifatini oshirish, vaqtni tejash va xarajatlarni kamaytirish tizimlarini anglatadi. Shu bilan birga, yuristlar, advokatlar, sud tizimi va boshqa tashkilotlar ishini tezlashtiradi, avtomatlashtiradi va masofaviy ish olib borishini ta'minlaydi. LegalTechning maqsadi - hujjatlar bilan ishlaganda xatolarni kamaytirish, huquqiy xizmatlarni tez, arzon, qulay qilish va huquq tizimida samaradorlikni oshirishni o'z ichiga oladi.

LawTech nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki u butun huquq tizimini o'z ichiga oladi, masalan: sud, prokuratura, adliya, notariat, fuqarolik xizmatlari va qonunchilik jarayonlarini raqamlashtirishni o'z ichiga oladi. LawTechning maqsadi - sud jarayonlarini soddalashtirish, shaffoflikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish kabilarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bunday texnologiyalar bugungi kunda global iqtisodiyotning eng tez o'sayotgan qismlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tahlillarga ko'ra, 2024-yilga kelib dunyo bo'yicha LegalTech kompaniyalari qiymati 50 milliard dollardan oshdi. Rivojlangan davlatlarda bu texnologiyalar yordamida yuridik xizmatlarning samaradorligi 40-60 foizga oshgan. LegalTech va LawTech nafaqat texnologiya, balki ular hozirda ko'plab huquqshunoslarga yordamchidir. Mazkur maqolaning maqsadi - LegalTech va LawTechning mohiyati, mazmunini, ularning jahon miqyosidagi rivojlanish jarayonlarini, global muammolarni, shuningdek, kelajakdagi imkoniyatlarini tahlil qilishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

LegalTech va LawTech sohalari so'nggi yillarda huquqshunoslik hamda axborot texnologiyalarining kesishgan nuqtasida shakllangan yangi ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida keng tadqiq etilmoqda. Mazkur sohaning nazariy asoslari va amaliy rivojlanish tendensiyalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan o'rganilgan.

Huquqiy texnologiyalarning rivojlanishi va yuridik xizmatlarning raqamlashtirishi masalalari bo'yicha Richard Susskindning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. U o'zining "The End of Lawyers?" hamda "Tomorrow's Lawyers" asarlarida yuridik kasbning kelajagi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqligini asoslab bergan. Olimning fikricha, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan huquqiy xizmatlar va onlayn platformalar an'anaviy yuridik xizmatlar modelini tubdan o'zgartirmoqda.

LegalTechning iqtisodiy va tashkiliy jihatlari Mark A.Cohen tomonidan keng tahlil qilingan. U huquqiy xizmatlar bozorida innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida samaradorlik oshishi, xarajatlar kamayishi va mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar kengayishini ta'kidlaydi. Shuningdek, Daniel Martin Katz huquqiy ma'lumotlarni tahlil qilish, huquqiy prognozlash va sun'iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlarining rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Sun'iy intellektning huquq sohasida qo'llanilishi bo'yicha Tim Miller va Atif Ahmad tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda huquqshunoslarning AI texnologiyalaridan foydalanish darajasi, ularning afzalliklari hamda axloqiy muammolari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt yuridik xizmatlarning tezkorligini oshirish bilan birga, huquqiy mas'uliyat, maxfiylik va algoritmik tarafdashlik bilan bog'liq muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan ham huquqiy texnologiyalar masalasi keng o'rganilmoqda. Xususan, OECD, Jahon banki (World Bank) va UNESCO hisobotlarida sud tizimini raqamlashtirish, elektron hukumat, elektron sud va sun'iy intellektidan foydalanishning huquqiy hamda institutsional jihatlari tahlil qilingan. Ushbu hisobotlarda huquq tizimining samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, kibexavfsizlik va ma'lumotlar maxfiylikni ta'minlash zarurligi alohida qayd etilgan.

MDH va Markaziy Osiyo mamlakatlarida huquq tizimini raqamlashtirish masalalari bo'yicha ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning natijalari LegalTech va LawTech texnologiyalarining sudlar, prokuratura organlari, notariat va advokatura faoliyatiga joriy etilishi huquqiy xizmatlarning sifati va ochiqligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili LegalTech va LawTech texnologiyalari zamonaviy huquq tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotganini, ularning huquqiy xizmatlar samaradorligini oshirish bilan birga, yangi huquqiy, axloqiy va texnologik muammolarni ham yuzaga keltirayotganini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy qarashlar ushbu tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada LegalTech va LawTechning kelajagi, muammolari va imkoniyatlarini tahlil qilish uchun bir necha metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Birinchi navbatda, normativ-huquqiy tahlil metodi yordamida xalqaro va milliy darajadagi qonun hujjatlari, davlat strategiyalari, raqamli iqtisodiyot siyosatlari o'rganiladi. Bu orqali huquqiy texnologiyalarni tartibga solish, ularning huquqiy maqomini belgilash va joriy etishdagi me'yoriy asoslar tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodi asosan sifat tahlili va taqqoslovchi tahlil usullariga tayanadi. Maqsad - turli mamlakatlarda huquqiy texnologiyalarni joriy etish tajribasini solishtirish va ularning muvaffaqiyat omillarini aniqlashdan iborat bo'ladi.

Keyingi bosqichda kontent tahlil usullaridan foydalanilib, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (masalan, OECD, World Bank, LexisNexis, Deloitte LegalTech Report) hamda yirik kompaniyalar tomonidan e'lon qilingan amaliy tadqiqotlar o'rganiladi. Ushbu manbalar yordamida dunyo miqyosida LegalTech bozorining hajmi, rivojlanish sur'atlari, investitsion faollik va foydalanuvchilar soni haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi.



Shuningdek, taqqoslash metodi ham qo'llaniladi. Bunda Rossiya, AQSH, Estoniya, Singapur va boshqa Yevropa mamlakatlaridagi LegalTech va LawTech texnologiyalarini chuqurroq o'rganish va taqqoslash orqali boshqa davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari va rivojlanish istiqbollarini aniqlash maqsad qilingan. Ushbu taqqoslash LegalTech sohasidagi tajribalarni kengaytirishga va xalqaro foyda olishga yordam beradi. Metodologiyaning muhim elementi sifatida SWOT tahlilidan ham foydalaniladi. U orqali LegalTech sohasining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda xavf-xatarlar baholanadi.

Tadqiqot jarayonida aralash usullar yondashuvidan foydalangan holda, Tim Miller va Atif Ahmad tadqiqotida 26 ta ichki advokat bilan sifatli intervyular o'tkaziladi va kengroq miqdoriy so'rovnoma orqali murakkab qonunchilik, noaniq tartibga solish tizimlari va ma'lumotlardan foydalanishdagi axloqiy muammolar kabi asosiy muammolar aniqlanadi. Natijada yuridik kasbda texnologik savodxonlikdagi sezilarli bo'shliq ko'rsatilib, bilim, ko'nikma va axloqiy ongini yaxshilash zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu tadqiqot yuridik mutaxassislarni texnologiyaga asoslangan kelajakda mas'uliyatli rahbarlik uchun tayyorlash bo'yicha yo'l xaritasini taqdim etadi hamda siyosatchilar va tartibga soluvchilar uchun muhim tushunchalarni beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijada, ushbu metodologik yondashuvlar keng qamrovda qo'llanilib, LegalTech va LawTech sohalari-ning rivojlanishiga, ish faoliyatini takomillashtirishga hamda samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi. So'nggi o'n yillikda huquqiy sohada avtomatlashtirish darajasi misli ko'rilmagan sur'atda oshdi. Masalan, 2015-yilda atigi 200 ta LegalTech kompaniyasi mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 400 dan oshdi. AQSH bu yo'nalishda yetakchi hisoblanadi. U yerda Clio, DocuSign, EverLaw, Relativity, LawGeex, RocketLawyer kabi kompaniyalar yirik startaplar sifatida tanilgan. Ular yuridik jarayonlarda hujjatlar aylanishi, shartnomalarni tekshirish, mijozlar bilan ishlash tizimini avtomatlashtirgan.

Clio - bu bulut texnologiyasiga asoslangan yetakchi yuridik dasturiy ta'minot bo'lib, u butun dunyo bo'ylab 150 mingdan ortiq yuristlar tomonidan foydalaniladi. Dastur 100 dan ortiq yuristlar uyushmalari va advokatlar bilan hamkorlikda ishlaydi hamda Buyuk Britaniyadagi yakka tartibdagi, kichik va o'rta yuridik firmalar uchun qulay xizmatlarni taklif etadi. Clioni tanlash sabablari ko'p: u yuqori darajadagi ishonchlilikka ega, yuzdan ortiq dasturlar bilan integratsiya imkoniyatini beradi va foydalanuvchilar uchun moslashuvchan tarif rejalarini mavjud. Clio yuridik firmalarga o'z ishlarini samaraliroq va tartibliroq tashkil etish, mijozlar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda umumiy unumdorlikni oshirishda yordam beradi. Shu sababli Buyuk Britaniyadagi ko'plab yuridik firmalar o'z faoliyatida Clioni qo'llashni afzal ko'rmoqda.

DocuSign - turli qurilmalarda elektron imzolar orqali elektron shartnomalarni boshqarish imkonini beruvchi mahsulotlarni tashkilotlarga taqdim etadi. 2025-yil holatiga ko'ra, DocuSign 180 mamlakatda 1,7 millionga yaqin mijozga ega. DocuSign tomonidan qayta ishlangan imzolar AQSHning ESIGN qonuni hamda Yevropa Ittifoqining eIDAS reqlamenti (shu jumladan, Yevropa ilg'or va malakali imzolari) talablariga to'liq mos keladi.

LawGeex sun'iy intellekt yordamida oldindan belgilangan qoidalarga asoslanib shartnomalarni tekshirish uchun machine learning, matn tahlili, statistik mezonlar va huquqiy tajribadan foydalanadi. Agar shartnoma standartlarga mos kelmasa, sun'iy intellekt kerakli tahrirlar va tasdiqlarni taklif qiladi. Kompaniya o'z dasturi xarajatlarni 90 foizga va shartnomani ko'rib chiqish vaqtini 80 foizga qisqartirishi mumkinligini ta'kidlaydi, ammo bu da'volarni qo'llab-quvvatlovchi batafsil tadqiqotlar hozircha mavjud emas. Deloitte (butun dunyo bo'ylab kompaniyalar tarmog'iga egalik qiluvchi xalqaro audit va konsalting korporatsiyasi. U "katta to'rtlik" auditorlik kompaniyalaridan biri bo'lib, xodimlar soni bo'yicha (312 ming kishi) eng yirik hisoblanadi. 2019-yilda Fortune jurnali Deloitte kompaniyasini yigirmanchi marta dunyoning 100 ta eng mashhur kompaniyalari qatoriga kiritgan. Bosh ofisi Nyu-Yorkda joylashgan) va Sears kompaniyalari LawGeex mijozlari hisoblanadi.

- EverLaw - sud jarayonlari uchun elektron dalillarni boshqarish tizimi.
- Relativity - Big Data asosida yuridik hujjatlarni tahlil qilish dasturi.

Buyuk Britaniya hukumati esa "LawTechUK" dasturi orqali huquq tizimini raqamlashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Ushbu dastur asosida elektron sudlar, virtual majlislar va blokcheyn asosidagi notarial tizimlar ishlab chiqildi.

Estoniya dunyoda birinchi bo'lib "E-Justice" tizimini to'liq joriy etgan davlat bo'lib, u yerda barcha sud jarayonlari raqamli tarzda yuritiladi, hujjatlar elektron imzo bilan tasdiqlanadi va fuqarolar "e-Resident" platformasi orqali o'z huquqiy ishlarini onlayn amalga oshira oladi.

Yuqorida ta'kidlagandek, AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur va Estoniya LegalTech va LawTech bozori yetakchilari sifatida tanilgan. Yevropa va Osiyoda elektron hujjat aylanishi, onlayn sud majlislari va virtual yuridik konsultatsiyalar keng joriy etilmoqda. Jahon miqyosida LegalTech sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. 2023-yilda bu raqam 3,5 milliard dollarga yetgan bo'lsa, 2025-yilga borib 5 milliard dollardan oshishi kutilmoqda. AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada va Isroil eng ko'p sarmoya jalb

qilgan mamlakatlardir. Ularning muvaffaqiyat omili - davlatning innovatsion siyosatga faol yondashuvi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikdir. O'zbekistonda so'nggi yillarda "Elektron hukumat", "Adliya onlayn", "Sud.uz", "Notarius.uz" kabi tizimlar ishga tushirildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

LegalTech va LawTechning eng faol texnologik yo'nalishlari:

1. Sun'iy intellekt (AI) - shartnomalarni, dalillarni avtomatik tahlil qilish, qarorlarni prognozlashni amalga oshiradi.
2. Blokcheyn - smart-shartnomalar tuzadi, raqamli notariat, intellektual mulkni himoya qilish sohasida turli elektron xizmatlarni ko'rsatadi.
3. Big Data - sud qarorlari, qonunchilik va jinoyat statistikasi tahlilini yuritadi.
4. Onlayn platformalar - yuridik maslahatlarga masofadan kirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Kiberxavfsizlik huquqiy ma'lumotlarning himoyasini ta'minlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, LegalTech va LawTech sohalari hozirgi davrda nafaqat yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish vositasi, balki butun huquq tizimining yangi poydevori sifatida shakllanmoqda. 2024-yil holatiga ko'ra, bu sohalar dunyo miqyosida tez sur'atlar bilan rivojlanib, huquqiy xizmatlar bozorini tubdan o'zgartirmoqda. LawTech va LegalTechning huquq sohasiga yaratadigan imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, xalqaro tajribaga yuzlanishimiz muhim. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasidagi bir nechta sudlarda sun'iy intellekt tizimlari qo'llanmoqda. Xitoyda ko'plab huquqiy masalalar sun'iy intellekt tomonidan hal qilinmoqda. Garchi u kichik da'volar va huquqbuzarliklar uchun jarayonni soddalashtirsa-da, murakkab ishlarni avtomatlashtirish haqida xavotirlar mavjud. Xitoy sun'iy intellektni rivojlantirish uchun katta resurslarni sarflashda davom etmoqda, bu esa davlatning kundalik hayoti va funksiyalariga ko'proq ta'sir qiladi.

Endi Xitoy sudlari ham qonuniy qarorlar qabul qilishda yordam berish uchun Aldan foydalanmoqda. Shanxaydan janubda joylashgan Xanchjou shahridagi sud 2019-yilda sun'iy intellektni ishga tushira boshladi. Sudyaning Xiao Zhi 3.0 yoki "Kichik dono" deb nomlangan yordamchi dasturi dastlab bank kreditlarini to'lay olmagan 10 kishi ustidan sud jarayonida yordam berdi. Ilgari bu masalani hal qilish uchun 10 ta alohida sud jarayoni talab qilingan bo'lardi, biroq Xiao Zhi 3.0 bilan barcha ishlar bitta sudya ishtirokida bitta sud majlisida hal qilinib, atigi 30 daqiqada qaror qabul qilinardi.

Dastlab, Xiao Zhi 3.0 tinglovlar davomida sud jarayonlarini e'lon qilish kabi takroriy vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Endilikda texnologiya ovozni tanib olish orqali guvohliklarni yozib olish, ish materiallarini tahlil qilish va real vaqt rejimida ma'lumotlar bazalaridan ma'lumotlarni tekshirish uchun foydalaniladi. Xiao Zhi 3.0 asosan oddiy moliyaviy nizolar bilan bog'liq hollarda qo'llaniladi. Biroq shunga o'xshash texnologiya Suchjoudagi sud tomonidan yo'l-transport hodisalari bo'yicha nizolarni hal qilish uchun qo'llanilgan. AI sudyaning vaqtini tejab, dalillarni o'rganib chiqdi va hukmlarni yozdi. "Xitoy sudlarida hatto jinoyat ishlarida ham sun'iy intellektni joriy qilish vasvasasini ko'ryapman. Xitoyning jinoiy sud tizimidagi muammolardan biri - tenglikni ta'minlashdir. Ular Xitoyning turli mintaqalarida jazolarning bir xil bo'lishini xohlashadi", - deydi AQSHdagi Duke huquq maktabi professori Shitong Qiao¹. Ammo dunyoning hamma nuqtalarida ham vaziyat Xitoydagi vaziyatdek emas. Yaqinda YuNESKO tomonidan o'tkazilgan so'rovda jiddiy tendensiya aniqlandi: sudyalar, prokurorlar va advokatlarni o'z ichiga olgan huquq sohasi vakillarining 44 foizi o'z ishlarida ChatGPT kabi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanmoqda, biroq atigi 9 foizi tegishli institutsional trening yoki ko'rsatmalar olgan. 96 ta davlatning sud organlari ishtirokidagi so'rov natijalari jiddiy axloqiy va huquqiy xavotirlarni keltirib chiqaradigan bo'shliqni ko'rsatadi.

So'rov shuni ko'rsatadiki, respondentlarning 93 foizi ChatGPT, Google Bard va Bing Chat kabi sun'iy intellekt texnologiyalari bilan tanish. 44 foizi ulardan matnlarni umumlashtirish, elektron pochta xabarlarini yozish, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va huquqiy tadqiqotlar o'tkazish kabi vazifalar uchun faol foydalanmoqda. Ishtirok etishning yuqori darajasi butun dunyo bo'ylab sud tizimlarida Alga bo'lgan ishonch ortib borayotganini ko'rsatadi.

Sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riq va treningning sezilarli darajada yetishmasligi aniq, sud operatorlarining atigi 9 foizi o'z tashkilotlari ko'rsatmalar bergan yoki sun'iy intellekt bo'yicha treninglar o'tkazganliklarini bildirishgan. Ushbu bo'shliq huquqiy kontekstda Alning mas'uliyatli va axloqiy qo'llanilishiga to'sqinlik qiladi. Yangi Zelandiya va Birlashgan Qirollik kabi ba'zi mamlakatlarda ishonchlilik, maxfiylik, tarafkashlikdan xabardorlik, javobgarlik, aniqlik va ma'lumotlar xavfsizligi kabi tushunchalarni ta'kidlovchi ko'rsatmalar ishlab chiqilgan².

1 Alena Zhabina (2023), How China's AI is automating the legal system? <https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988>

2 Gutiérrez, Juan David (2024), UNESCO Global Judges' Initiative: Survey on the Use of AI Systems by Judicial Operators <https://>



Huquqshunoslarning sun'iy intellektga haddan ortiq ishonib qolishi va bog'lanib qolishi kuchaysa, bu huquqiy tafakkurning zaiflashuvi, ijodiy yondashuvning yo'qolishi hamda vaziyatning chalkash yoki yechimi noaniq bo'lib qolishiga olib keladi. Shuning uchun, bunday muammolar bo'lmasligi uchun sud jarayonlarida sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish va buning oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ko'rish kerak. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi "Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-140-sonli Farmoni keltirib o'tilgan³.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoni orqali:

Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda raqamlashtirish jarayonlarini jadal-lashtirish, shuningdek, sudlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish-ning kelgusi yillardagi ustuvor maqsadlari belgilanganligi aytib o'tilgan.

Shuningdek, Bosh prokuratura tizimida ham raqamli prokuror nazoratini joriy etish, tekshiruvlar va moni-toring jarayonini avtomatlashtirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Bu orqali qonun buzilishlarini erta aniqlash, mas'ul shaxslarning harakatlarini kuzatib turish hamda prokuror nazoratini shaffof va samarali tashkil etish mumkin. Shu kabi chora-tadbirlar bunday muammolarni yechishga yordam beradi, ya'ni huquqshunoslar LegalTech va LawTechning mohiyatini to'liq o'rganadi, kamchiliklar va xatolar kamayadi hamda ish samarador-ligi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

LegalTech va LawTech texnologiyalari huquq tizimini tubdan o'zgartirayotgan eng yetakchi yo'nalishlardan biridir. Ular yuridik xizmatlarni tezkor, qulay, shaffof va adolatli qilishga xizmat qiladi. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: LegalTech va LawTech yuridik sohadagi ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirish, tezlashtirish va xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Jumladan:

- ish samaradorligini oshiradi;
- qog'ozbozlikni kamaytiradi;
- vaqt va mablag'ni tejaydi;
- yuridik hujjatlarni boshqaradi va kerakli ko'rsatmalar beradi;
- eng asosiysi, inson mehnatini yengillashtiradi.

Shu bilan birga, LegalTech va LawTechning bir qator muammolari mavjud: kiberxavfsizlik va maxfiylik muammosi, shuningdek, texnik-raqamli infratuzilma muammosi.

Xulosa qilib aytganda, LegalTech va LawTech zamonaviy huquq sohasining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu texnologiyalar nafaqat yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish, balki adolat tizimini samaraliroq, tezkor va aniq qilish imkonini ham bermoqda. Shu tarzda LegalTech va LawTech tizimlarini bosqichma-bosqich joriy qilish huquq tizimini modernizatsiya qiladi, shuningdek, O'zbekistonni global innovatsion huquq makoniga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Wikipediya, <https://ru.wikipedia.org/wiki/Deloitte>
2. Law Tech UK website. <https://lawtechuk.io/about/>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. Alena Zhabina (2023), How China's AI is automating the legal system? <https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988>
5. Gutiérrez, Juan David (2024), UNESCO Global Judges' Initiative: Survey on the Use of AI Systems by Judicial Operators <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000389786>
6. Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-140-sonli Farmoni <https://share.google/a7yKvqUv5gn7ls19>

unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000389786

3 <https://lex.uz/uz/docs/-7696567>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.